

**MUSIQA MADANIYATI FANIDA DARSNING TARKIBIY QISMLARINI
INTEGRATSIYALASHNING INNAVATSION METODLARI****Kalonova Farangiz Baxriddinovna***Navoiy Pedagogika Universiteti Musiqa ta'limi**va san'at yo'nalishi 2-kurs magistranti**Ilmiy rahbar: NavDU Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti***Jalilov.Sh.I**

Anotatsiya: Ushbu maqolada musiqaning madaniy hayotimizdagi o'rini, insonning ma'naviy shakllanishida oila, jamiyat, maktab, san'atning ahamiyati hamda musiqa darslarini integratsiyalangan holda tashkil etish haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa ta'limi va tarbiyasi, integratsiya, innavatsion metodlar.

Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zalliklarni qalb ko'zi bilan ko'rib his qilish imkoni beradigan san'at turidir. Musiqa- inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lib, inson atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lib yetishishida albatta musiqa madaniyati fanining ahamiyati katta. Musiqa va san'at haqidagi ilk umumiy tushunchalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida beriladi. Ushbu jarayonda bolalarda musiqa haqida tasavvur paydo bo'ladi va musiqaga bo'lgan qiziqish uyg'ona boshlaydi. Keyingi musiqa haqidagi bilim va ko'nikmalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida berib boriladi. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani 1 sinfdan 7 sinfga qadar o'qitiladi va ushbu fani haftasiga 1 soatni tashkil etadi. Davlat ta'lim standartlari, ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari, katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilik asarlarning elementar asalarini me'yorlashtiradi. Odatda, musiqa savodxonligi darsi – o'qitish tamoyillariga muvofiq bo'ladi. U tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tushunish uchun qulay hisoblanadi. Musiqa darsi mazmuni o'quv dasturiga muvofiq bo'lib, u boshqa darslar tizimidagi bo'g'inlarni qamrab oladi. Musiqa savodxonligini rivojlantirishda bolaning iqtidori ham muhim sanaladi, axloqiy estetik fazilatlari hamda mehnatga munosabati shakllantiriladi. Hozirda musiqa madaniyati fanini integratsiyalangan holda innavatsion metodlar yordamida tashkil etish har bir pedagog oldidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Integratsiya so'zi lotincha "integer" – butun so'zidan olingan bo'lib, tiklash, to'ldirish degan ma'noni anglatadi. Musiqa madaniyati fanida integratsiya tushunchasining qo'llanishi ushbu fandagi kompetensiyalarning o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirib kelish demakdir. Musiqa faoliyati turlari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lishi, bir- birini to'ldirib kelishi kerak. Musiqali harakatlar,

cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda didaktik o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq. Musiqa savodxonligi darsi mustaqil faoliyat sifatida emas, balki barcha faoliyatlar turlari bilan bog'lab tahlil qilinishi va uni ongli idrok etish lozim. Musiqa savodi faqatgina notalar haqida ma'lumot emas, balki balki notagacha bo'lgan davr, musiqa janrlari, shakllari, milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish, ijrochi, tinglovchi, kompozitor va bastakorlar haqida va nihoyat musiqa ifoda vositalari kuy, temp, registr, dinamika va boshqalar bilan ta'ishtirishni o'z ichiga oladi.

Musiqa savodxonligi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyati qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladu va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochilari va boshqalar) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib topdiruvchi, umumiy bilim va tushunchalar majmuasini ya'ni musiqa shakllari, janrlari, xalq, bastakorlik musiqasi, ularning farqlari milliy musiqaning mahalli uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi va boshqalarni singdirib borishdan iborat.

Umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarida o'qituvchining pedagogik mahorati yuqori darajada bo'listing lozim. O'qituvchining cholg'u ijrochiligi, yuksak kasbiy mahorati, nuts madaniyati, musiqa savodxonligi bo'yicha to'g'ri ko'rsatmalar berishi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Davlat Ta'lim Standarti" ni translate anglashi zarur. Shundagina uning dars o'tish tamoyillari, tadbirlarni mazmunli tashkil etish ijodkorligi ortib borasi. Shu bilan birga pedagoglar musiqa san'atidan to'g'ri foydalangan holda darsda musiqa tinglash, xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqaga ritmik jo'r bo'lish va musiqa bilan harakatlarni bajarish kabi yo'nalishlardan darsda oqilona foydalanishi zarur. Shu jihatdan olib qaraganda ta'lim jarayonini musiqiy idrok etishda yangi metodlarga va innovatsion texnologiyalarga taynish, yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qancha omillardan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Darsning samaradorligini oshirishda didaktik ta'limning o'rni beqiyosdir. Didaktik ta'limda ta'limda o'quvchiga beriladigan mustaqil topshiriq orqali musiqali harakatlar, cholg'uchilik ijodlarining faoliyatini amalga oshirishda o'yin metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Umumta'lim maktablarida oquvchi yoshlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda kasb-hunar rivojiga erishishda o'qituvchi – pedagoglar yangi zamonaviy dasturlarni ishlab chiqishi bugungi zamon talabi bo'lib qolmoqda. O'quvchini qay darajada ko'provides bilim olishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etilsa, dars samaradorligiga, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yilishiga erishiladi.

Integratsiyalashgan musiqa ta'limining zamonaviy tahsil olishda o'rni beqiyos bo'lib, o'quvchilarni jamiyatda o'z bilimlaridan izchil, konstruktiv foydalanishlari uchun asos bo'la oladi. Bugungi kunda dars jarayonlarini faqatgina nazariy tushunchalar berish bilan cheklanib qolmay balki, musiqa madaniyati darslarini o'qitishda ko'rgazmali qurollar, axborot texnologiya vositalaridan keng foydalanish darslarning samaradorligini oshirishda asosiy yechim bo'lmoqda. Darslarning samaradorligini oshirish, interfaol usullardan foydalanish o'quvchida fanga qiziqish, yangi iste' dodlarni namoyon bo'lishida katta hissa qo'shmoqda. Bu borada Respublikamizning barcha ta'lim tizimlarida, ayniqsa, oliy pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ahamiyat berilayotgani va turli pedagogik tadqiqotlar olib borilayotgani bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy qismini o'qitishdan ko'zlangan maqsad va uning yuksak natijalarga erishish uchun ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati yaxshilanishiga qaratilgan va ta'lim sohasini texnologiyallashtirish eng muhim vazifalardan biri ekanligi ko'zda tutilgan. Hozirda Oliy ta'lim muassalarida musiqa o'qitish metodikasi hamda amaliyot soatlariga alohida e'tibor berilayotgan bo'lsada yosh kadrlar orasida ba'zi bir kamchiliklar uchrab turibdi. Ushbu maqolada biz musiqa madaniyati darsi tarkibiy qismlarini to'g'ri integratsiyalangan holda tashkil etish va innavatsion metodlarni ishlab chiqishga qaratilgan harakatlarni tahlil qildik. Bu borada aniqroq natija olish uchun umumta'lim maktablarida o'z ish faoliyatini olib borayotgan pedagoglar bilan so'rovnomma o'tkazdik va natijada yangi chop etilgan musiqa madaniyati darsliklari innavatsion metodlar uchun asos bo'la olishini aniqladik.

Yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lishini ta'minlash maqsadida ta'limda musiqa madaniyati fanlarini o'qitishda bir qator yangiliklar kiritilmoqda. Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bunga yaqqol isbot bo'la oladi. Qarorda, umum o'rta ta'lim muassalarida maktaktab o'quvchilari milliy musiqiy cholg'ularning kamida bittasida kuy ijro eta olishi hamda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Ushbu qaror joriy etilishi albatta musiqa madaniyati fani o'qituvchilari zimmasiga kelajak avlod madaniy va ma'naviy jihatdan kamol topishi yanada katta mas'uliyatni qo'ydi. Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida pedagoglar o'sib kelayotgan yosh avlodga kuchli bilim va na'muna bo'la oladigan tarbiya bera olsagina o'z vazifasini sidqi dildan ado etayotgan bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki barkamol avlod shaxs sifatida shakllanishida musiqaninig o'rni beqiyos. Musiqa inson ruhini ma'nan oziqlantiradi, go'zalikka qiziqishini uyg'otish orqali nafosat olamiga olib kiradi.

Ma'lumki, musiqa madaniyati darslari poydevori maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab qo'yiladi. Bunda tarbiyalanuvchi yoshiga doir kuy va

qo'shiqlarni kuylash, raqs elementlarini bajarish turli musiqiy ko'ngil ochar o'yinlarni o'ynash orqali ularda musiqiy qobiliyat shakllantiriladi. Keyingi uzviy jaryon albatta umumta'lim maktablarida boahlang'ich sinflarda musiqa savodxonligi orqali olib boriladi. Boshlang'ch sinf o'quvchilariga xor bo'lib kuylash, ritmik harakatlarni to'g'ri takrorlash va uni his qilish, musiqiy kalitlar, notalar haqida umumiy tushunchalar beriladi. Yuqori sinf o'quvchilari bilan esa milliy musiqiy merosimiz (Shashmaqom), xalq kuylari, milliy musiqiy cholg'u asboblari tanishtiriladi. Quyida biz sanab o'tgan jarayonlar faqatgina o'quvchiga nazariy tushunchalar berish orqali ko'nikma hosil qilish fikridan yiroqmiz. Bilamizki musiqa madaniyati fani boshqa nazariy fanlardan farqli o'laroq amaliy fan sifatida dam oilsh soatiga mo'ljallagan dars hisoblanadi. Shunday ekan ushbu soha pedagoglari musiqa madaniyati darslari tarkibiy qismlarini integratsiyalangan holda turli innavatsion metodlardan foydalangan holda to'g'ri tashkil qila olishi muhimdir. **Integratsiya**- lotincha "integer" so'zidan olingan bo'lib, butun tiklash, to'ldirish, kabi ma'nolarni anglatadi. Musiqa madaniyati fanida integratsiya tushunchasi dars jarayoni to'liq, butunligicha tashkil qilish ya'ni (boshlang'ich sinflarda) xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish va cholg'u asboblari jo'r bo'lib kuylashdan iboratdir. Ushbu besh faoliyat turini to'liqligicha innavatsion metodlar yordamida tashkil etish pedagoglardan alohida mahorat talab etadi. Har bir faoliyat turi uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangicha metodlardan sanab o'tamiz.

Xor bo'lib kuylash. Ushbu faoliyat turi uchun o'quvchilarni shunchaki akapella ko'rinishida kuylash cheklanib, balki shovqinli cholg'u asboblari (uchburchak, shaqildoq, buben yoki maishiy buyumlardan biri cho'p qoshiqlardan) foydalangan holda kuyning o'lchoviga mos ravishda o'quvchilar tomonidan kuchli hissalarini ko'rsatish, naqoratiga kuylanganda ushbu cholg'u asboblari jo'r bo'lish orqali amalga oshilsa, xor bo'lib kuylash jarayoni qiziqarli tashkil qilinadi.

Musiqa savodi. Musiqa madaniyati fanining bunday faoliyat turida "Notalarni o'rganamiz" mavzusi misolida ko'radigan bo'lsak, notalarni rang-barang kartochkalar yordamida tanishtiriladi so'ngra o'quvchi keyingi jarayonda fortepianoda notalarni to'g'ri topgan holda joylashtirishi kerak bo'ladi. Ushbu metod bir vaqtda notalar nota chizigida joylashuvi hamda fortepianodagi o'rnini bilib olishadi

Musiqa tinglash uchun esa "Tingla va to'g'risini belgila" metodidan foydalansa bo'ladi. Bu metodda o'quvchiga cholg'u asboblari rasmi tushirilgan jadval tarqatiladi va cholg'u asboblari tovushi eshittirilib, o'quvchilar quyidagi jadvalga ovozigacha qarab belgilashadi. Eng ko'p cholg'u asboblari topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

Musiqaga mos harakatlar bajarishda "Pantamimo" usulidan foydalanish dars qiziqarli o'tishiga hissa qo'shadi. Bunda o'qiruvchi oldindan tayyorlab qo'ygan qo'shiq matnlarini ishtirokchilarga taqdim etadi. Ishtirokchi guruh a'zolariga imo-ishoralar

yordamida ko'rsatadi va eng ko'p qo'shiqlarni nomini to'g'ri topgan guruh rag'batlantiriladi.

Cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyatida o'quvchilarni milliy va zamonaviy cholg'u asboblari va ularda chalingan kuylar bilan tanishtiriladi. Qo'shiq aytish qoidalariga royl qilgan holda asboblarga jo'r bo'lishadi.

Musika san'ati jamiyat ijtimoiy taraqqiyotinig barcha bosqichlarida insonni tarbiyalash va ma'naviy boyitish vositalaridan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda. Hozirgi fan va texnika tarqqiy etgan bir davrda musiqaning ahamiyati yanada kuchaymoqda. Mustaqilligimz sharofat bilan madadaniy hayotimizda musika san'aiming barcha sohalarida yangicha tamoyillar shakllana boshladi. Shu bois umumta'lim maktablarida o'sib borayotgan yosh avlod ma'nan yetuk, salohiyatli bo'lishi uchun musika madaniyati faniga nisbatan e'tibor ortdi. Musika tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qismlaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga, qadrlashga o'rgatadi. Musika san'at va hayot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi. Shu sababli inson ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq olib, madad topadi.

Xulosa:

Bugungi axborot texnologiyalari asrida musika o'qituvchilari zamon bilan hamnafas bo'lib, innavatsion metodlar, ilg'or pedagogik texnologiya malakalarini to'liq o'zlashtirishi va shular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog'I lozim. O'quvchi bir soatlik bir soatlik musika darsida ham cholg'uchi, ham xonanda, ham dirijor, ham artist, ham ssenariy muallifi bo'listing lozim. Shu bois, musika darsi san'at darsi deyiladi. Buning uchun musika o'qituvchisi integratsiyalangan ta'lim yo'lga qo'yishi, salohiyatli, izlanuvchan bo'listing talab etiladi. U pedagogika, psixologiya, fiziologiya, etika, estetika nazariyasining amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi musika madaniyati darslarining sifatli bo'lishiga katta hissa qo'shishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Xudoyberdiyev A. Musika tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 240 b.
4. Rahmatullayev B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musika madaniyati o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 198 b.
5. To'xtayev A. Musika tarbiyasida estetik didni shakllantirish. – Toshkent: Ilm Ziya, 2019. – 156 b.

6. Jo'rayev A. Musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar // Pedagogika jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–50.
7. Jalilov Sh.I. Musiqa darslarini integrativ asosda tashkil etishning metodologik aspektlari.
Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning ta'lim amaliyotiga tatbig'i. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand viloyati PYMO'MM, 2024.
8. Nazarov K. Musiqa va san'at tarbiyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy nomidagi universitet nashriyoti, 2018. – 214 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent,